



**O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINI
NOMARKAZLASHTIRISHDAGI ISLOXOTLAR: MUAMMOLAR VA
ISTIQBOLLAR**

Tadjibayeva Nozima Abbas qizi

O'zJOK universiteti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda amalga oshirilayotgan nomarkazlashtirish siyosati, mahalla institutining roli va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari asosidagi boshqaruv islohotlari ko'rib chiqilib, nomarkazlashtirish demokratik boshqaruv va fuqarolik faolligini kuchaytiruvchi omil sifatida baholangan.*

Kalit so'zlar: *nomarkazlashtirish, davlat boshqaruvi, mahalla instituti, fuqarolik jamiyati, ma'muriy islohotlar, demokratik boshqaruv, mahalliy hokimiyat, samaradorlik*

Annotation: *The article analyzes the decentralization policy implemented in Uzbekistan after independence, the role of the mahalla institution, and the process of developing civil society. It also examines the governance reforms initiated by President Shavkat Mirziyoyev, emphasizing decentralization as a key factor in strengthening democratic governance and enhancing civic engagement.*

Keywords: *decentralization, public administration, mahalla institution, civil society, administrative reforms, democratic governance, local authorities, efficiency*

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston davlat boshqaruvini zamon talablariga mos isloh qilishni boshladi. Uning asosiy yo'nalishlaridan biri markazlashgan boshqaruvdan voz kechib, mahalliy va nodavlat institutlar vakolatlarini kengaytirish orqali nomarkazlashtirish siyosatini joriy etish bo'ldi. 2016 yildan boshlab bu yo'nalish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Nomarkazlashtirish jamoat boshqaruvini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va xizmatlar samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining tayanchi sifatida mahalla instituti davlat va jamiyat o'rtasida bog'lovchi ko'priq vazifasini bajarib, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilmoqda. Shu orqali davlat boshqaruvi soddalashtirib, jamiyat bilan mas'uliyatni bo'lishish va fuqarolik faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Hududlarni rivojlantirishda davlat boshqaruvi organlari, ayniqsa hududiy bo'linmalar faoliyatini takomillashtirish muhimdir. Shu maqsadda ma'muriy apparatni ixchamlashtirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish va ish jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 6-maqsadi ham aynan shu yo'nalishga qaratilib, davlat funksiyalarining bir qismini xususiy sektorga o'tkazish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish va raqamli texnologiyalar orqali boshqaruv samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017- yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: —Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyati idoralari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlaydigan usul va uslublarni takomillashtirib, o'ta markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechish lozim... Davlat boshqaruvini haddan tashqari markazlashtirishdan voz kechish zarur. Buning uchun ko'pgina vakolatlarni markaziy davlat organlaridan hududiy organlarga o'tkazish kerak.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ilgari surgan islohotlar davlat boshqaruvida o'ta markazlashtirishdan voz kechib, samarali nomarkazlashtirish tizimini shakllantirishga qaratilgan. Vakolatlarning hududiy bo'g'inlarga o'tkazilishi boshqaruvni soddalashtirib, joylardagi mas'uliyatni kuchaytiradi. Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi vertikal boshqaruvni muvozanatlashtirish, mahalliy tashabbusni oshirish va shaffof, ehtiyojga mos qarorlar qabul qilishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlarni samarali amalga oshirishning pirovard natijasida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g'oya hayotga to'liq tatbiq etilishi lozimligi qayd etilgan.

O'zbekistonda nomarkazlashtirish asosan markaziy vakolatlarning mahalliy hokimlar qo'lida to'planishi — ya'ni dekoncentratsiya shaklida rivojlanmoqda. Samarali natija uchun mahalliy boshqaruvga nodavlat tashkilotlarni jalb etish zarur, bu ijtimoiy muammolarni hal etish va davlat yukini kamaytirishga xizmat qiladi. 2022 yildan boshlab o'tkazilgan ma'muriy islohotlar davlat funksiyalarini optimallashtirish va takrorlovchi vakolatlarni qisqartirishga qaratilgan. Mahalliy hokimiyat faoliyatini baholash tizimi (LGPMF) esa samaradorlik, shaffoflik va fuqarolik ishtirokini oshirishga yordam bermoqda.

Xulosa qilib, O'zbekistonda nomarkazlashtirish siyosati demokratik boshqaruvni mustahkamlash va davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda, biroq jarayonni barqaror qilish uchun mahalliy organlar salohiyatini va fuqarolar ishtirokini yanada kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

2. **Gafarli, M., Kasaev, A.** The Uzbek model of development: peace and stability are the basis of development. // Tashkent: Uzbekistan, 2001. – P. 430.

3. Умаров А. Современная политика децентрализации государственного управления в Узбекистане// CABAR.asia. – 2021. – 22 января. – Режим доступа: <https://cabar.asia/en/modern-policy-of-decentralization-of-public-administration-in-uzbekistan>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. An experiment with the local budget will be carried out in Tashkent // Information and legal portal “Norma”.

21.06.2017. https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/v_tashkente_provedut_eksperiment_s_mestnym_byudjetom

5. The law on state power at the local level will be adopted in a new edition // IA “Gazeta.uz”. – 24.05.2019. – Режим доступа:

<https://www.gazeta.uz/ru/2019/05/24/project/>

6. Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Public Services Agency, UNDP in Uzbekistan. Improved Public Service Delivery and Enhanced Governance in Rural Uzbekistan. Tashkent: UNDP, 2021. Pp. 28–29.

7. OECD. (2018). *Improving the Performance of Sub-national Governments through Benchmarking and Performance Reporting*. By Phillips, L. OECD Working Papers on Fiscal Federalism, No. 22, p. 4.